

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESINIŇ
QARARI**

2023 - yil 28 - yanvar

33-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

XDFU

Yer maydonini zaxiraga qaytarib olish to'g'risida

Mo'ynoq tumani hokimligining 2023-yil 7-yanvardagi 01/1-sonli xati hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-sonli Farmoni, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Mo'ynoq tumani hokimligining 2023-yil 7-yanvardagi 01/1-sonli xati yuzasidan Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasining 2023-yil 18-yanvardagi 01-03/126-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mo'ynoq tumani ichki ishlar bo'limi egaligidagi 0,14 gektar yer maydoni Mo'ynoq tumani hokimligi zaxirasiga o'rnatilgan tartibda qaytarib olinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) Mo'ynoq tumani hokimligi zaxirasiga yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan yer hisobotiga tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat soliq boshqarmasi ushbu yer maydoni Mo'ynoq tuman hokimligi zaxirasiga qaytarib olinishini inobatga olib, yerdan foydalanuvchining soliq va boshqada to'lovlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqish topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov